



HISTORICAL AND PHILOSOPHICAL ROOTS OF SPIRITUAL AND ENLIGHTENMENT DEVELOPMENT

Sanoat Rahmonova

Lecturer at the Department of Foreign Languages and Social Sciences

International University of Asia

E-mail: sanoatrahmonova1211@gmail.com

Bukhara, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: spirituality, enlightenment, spiritual and enlightenment development, historical and philosophical thought, history of philosophy, perfect human being, morality, justice, knowledge, national values.

Received: 04.09.26

Accepted: 05.09.26

Published: 06.09.26

Abstract: This article analyzes the historical and philosophical roots of spiritual and enlightenment development, as well as the stages of its formation and development from a socio-philosophical perspective. It explores the essence and significance of such concepts as spiritual development of the individual, knowledge and enlightenment, morality, justice, and goodness in the history of philosophical thought. The philosophical thought of the Ancient East and Antiquity, as well as the spiritual and enlightenment views of thinkers of Central Asia, are analyzed. The ideas of Abu Nasr al-Farabi, Abu Rayhan al-Biruni, Abu Ali ibn Sina, Yusuf Khos Hajib, and Alisher Navoi concerning knowledge, enlightenment, the perfect human being, morality, and social development are examined as historical and philosophical foundations of spiritual and enlightenment development.

MA'NAVIY-MA'RIFIY TARAQQIYOTNING TARIXIY-FALSAFIY ILDIZLARI

Sanoat Rahmonova

Osiyo Xalqaro Universiteti Xorijiy til va ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

E-mail: sanoatrahmonova1211@gmail.com

Buxoro, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ma'naviyat, ma'rifat, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyot, tarixiy-falsafiy tafakkur, falsafa tarixi, komil inson, axloq,

Annotatsiya: Mazkur maqolada ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotning tarixiy-falsafiy ildizlari, uning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari ijtimoiy-falsafiy nuqtayi

adolat, ilm, milliy qadriyatlar.

nazardan tahlil qilinadi. Inson ma'naviy kamoloti, ilm-ma'rifat, axloq, adolat va ezgulik kabi tushunchalarning falsafa tarixidagi mazmun-mohiyati ochib beriladi. Qadimgi Sharq va antik davr falsafiy tafakkuri, shuningdek, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ma'naviy-ma'rifiy qarashlari tahlil qilinadi. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib va Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning ilm, ma'rifat, komil inson, axloq va jamiyat taraqqiyoti haqidagi g'oyalari ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotning tarixiy-falsafiy asoslari sifatida yoritiladi.

ИСТОРИКО-ФИЛОСОФСКИЕ КОРНИ ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОГО РАЗВИТИЯ

Саноат Рахмонова

Преподаватель кафедры иностранных языков и социальных наук

Международного университета Азии

E-mail: sanoatrahmonova1211@gmail.com

Бухара, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: духовность, просвещение, духовно-просветительское развитие, историко-философская мысль, история философии, совершенный человек, нравственность, справедливость, знание, национальные ценности.

Аннотация: В статье анализируются историко-философские корни духовно-просветительского развития, этапы его формирования и развития с социально-философской точки зрения. Раскрывается содержание и сущность таких понятий, как духовное совершенствование личности, наука и просвещение, нравственность, справедливость и добро, в истории философской мысли. Анализируются философская мысль Древнего Востока и античности, а также духовно-просветительские взгляды мыслителей Центральной Азии. Идеи Абу Насра аль-Фараби, Абу Райхана Беруни, Абу Али ибн Сины, Юсуфа Хос Хаджиба и Алишера Навои о знании, просвещении, совершенном человеке, нравственности и развитии общества рассматриваются как историко-философские основы духовно-просветительского развития.

Kirish. Ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyot insoniyat tarixiy rivojlanishining muhim tarkibiy qismi bo'lib, jamiyatning ma'naviy qiyofasi, dunyoqarashi, axloqiy mezonlari va intellektual salohiyatining shakllanishida alohida ahamiyat kasb etadi. Insoniyat taraqqiyotining barcha

bosqichlarida bilim, ma'rifat, ezgulik, adolat va axloq masalalari falsafiy tafakkurning muhim mavzularidan biri bo'lib kelgan. Falsafa tarixiga nazar tashlasak, qadimgi Sharq va antik davr mutafakkirlari insonning ma'naviy kamoloti va jamiyat taraqqiyoti o'rtasidagi uzviy bog'liqlikka alohida e'tibor qaratganini ko'rish mumkin. Qadimgi Sharq tafakkurida ezgulik va yovuzlik, adolat va adolatsizlik, bilim va jaholat o'rtasidagi munosabatlar inson va jamiyat hayotining muhim masalalari sifatida qaralgan. Markaziy Osiyo hududida shakllangan falsafiy tafakkur ma'naviy-ma'rifiy g'oyalarning rivojlanishida alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, IX–XII asrlarda ilm-fan va falsafaning yuksalishi natijasida inson, jamiyat, axloq, bilim va ma'rifat masalalariga oid boy ilmiy-falsafiy meros yaratildi. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi mutafakkirlarning qarashlarida ilm va aql inson kamolotining asosiy vositasi sifatida talqin qilindi. Forobiy o'zining fozil shahar haqidagi ta'limotida jamiyat taraqqiyotini insonlarning ma'naviy-axloqiy kamoloti bilan bog'laydi. Uning fikricha, fozil jamiyatni shakllantirish uchun insonlar bilimli, axloqli va ezgu maqsadlarga intiluvchi bo'lishi lozim. Bu g'oyalar ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotning ijtimoiy mazmunini anglashda muhim falsafiy manba hisoblanadi. Abu Ali ibn Sino ilm va aqlning inson hayotidagi o'rniga katta ahamiyat bergan. Uning falsafiy qarashlarida insonning jismoniy va ma'naviy kamoloti, bilim egallashi hamda axloqiy fazilatlarni rivojlantirishi muhim masala sifatida namoyon bo'ladi. Abu Rayhon Beruniy esa ilmiy bilish, kuzatish va tajribaga asoslangan tafakkurni rivojlantirish orqali insoniyatning ma'rifiy taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan. Keyingi davrlarda Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar ijodida ham ilm, ma'rifat, adolat, axloq va komil inson g'oyalari izchil davom ettirildi. Yusuf Xos Hojib jamiyat boshqaruvi va inson xulq-atvorida adolat, aql va bilimning ahamiyatini ko'rsatgan bo'lsa, Alisher Navoiy insonning ma'naviy kamoloti, ezgulik va adolatni qaror toptirish masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Shunday qilib, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotning tarixiy-falsafiy ildizlari qadimgi davrlardan boshlab shakllangan va turli tarixiy bosqichlarda yangi mazmun bilan boyib borgan. Ushbu meros bugungi jamiyat ma'naviy hayotini anglash va ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarning tarixiy davomiyligini tadqiq etish uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotning qadimgi falsafiy ildizlari

Ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyot tushunchasining mazmuni insoniyatning dastlabki falsafiy qarashlari bilan bevosita bog'liqdir. Qadimgi jamiyatlarda insonning tabiat va jamiyatdagi o'rni, ezgulik va yovuzlik, adolat va adolatsizlik, bilim va jaholat kabi masalalar dastlab mifologik, keyinchalik esa falsafiy dunyoqarash asosida tushuntirila boshlangan. Shu ma'noda ma'naviyat va ma'rifatning dastlabki elementlari insonning borliqni anglashga bo'lgan ehtiyoji bilan birga shakllangan. Qadimgi Sharq sivilizatsiyalarida axloqiy tartib, adolat, ezgulik va insonning

jamiyat oldidagi mas'uliyati muhim qadriyat sifatida qaralgan. Qadimgi Misr, Hindiston, Xitoy va Markaziy Osiyo hududlarida shakllangan falsafiy qarashlarda insonning o'zligini anglashi, axloqiy poklanishi va jamiyat bilan uyg'un hayot kechirishi masalalariga katta e'tibor berilgan. Antik yunon falsafasida esa inson va uning ma'naviy dunyosi masalasi yanada tizimli tarzda o'rganila boshlandi. Suqrot falsafasida "o'z-o'zini anglash" va axloqiy bilim inson kamolotining muhim sharti sifatida talqin qilindi. Aflotun inson va jamiyat taraqqiyotini ezgulik, adolat va bilim bilan bog'ladi. Arastu esa insonni ijtimoiy mavjudot sifatida ko'rib, uning baxt-saodati va kamolotida axloqiy fazilatlarning o'rnini asoslab berdi. Bu qarashlar keyingi falsafiy tafakkur rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Markaziy Osiyo falsafiy tafakkurida ma'naviyat va ma'rifat g'oyalari Markaziy Osiyo xalqlarining falsafiy tafakkuri tarixida ma'naviy-ma'rifiy g'oyalar alohida o'rin egallaydi. Mintaqada shakllangan zardushtiylik dunyoqarashida ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash, insonning ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal asosida yashashi kabi g'oyalar ilgari surilgan. Bu tamoyillar insonning axloqiy mas'uliyati va ma'naviy faoliyatini belgilashga xizmat qilgan. Islom falsafasi va Sharq uyg'onish davri Markaziy Osiyo ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Ayniqsa, IX–XII asrlarda ilm-fan, falsafa, matematika, tibbiyot, astronomiya va boshqa fanlarning rivojlanishi natijasida inson tafakkuri va ilmiy dunyoqarashning imkoniyatlari kengaydi. Ilm olish, bilimni jamiyat manfaatlariga yo'naltirish va insonni kamol toptirish masalalari falsafiy tafakkurning muhim yo'nalishlariga aylandi.

Abu Nasr Forobiy falsafasida inson va jamiyat taraqqiyoti masalasi markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Uning fozil shahar haqidagi ta'limotida jamiyatning farovonligi insonlarning bilimli, axloqli va ma'naviy jihatdan yetuk bo'lishi bilan bog'lanadi. Forobiy nazarida inson o'zining aqliy va axloqiy imkoniyatlarini rivojlantirish orqali kamolotga erishadi. Shu sababli uning qarashlarida ta'lim, tarbiya, axloq va ilm jamiyat taraqqiyotining muhim omillari sifatida namoyon bo'ladi. Abu Rayhon Beruniy ilmiy bilish va inson tafakkurining imkoniyatlarini yuksak baholagan. Uning ilmiy merosida kuzatish, tajriba, dalil va mantiqiy xulosaga asoslangan bilimga alohida e'tibor qaratiladi. Beruniy turli xalqlarning madaniyati, urf-odatlar va ilmiy qarashlarini o'rganish orqali insoniyatning ma'naviy boyligi xilma-xil ekanini ko'rsatgan. Bu jihat ma'rifatning insonlar va xalqlar o'rtasidagi o'zaro anglashuvni ta'minlashdagi ahamiyatini ko'rsatadi. Abu Ali ibn Sino falsafiy qarashlarida insonning aqliy, axloqiy va ruhiy kamoloti masalalariga katta ahamiyat bergan. Uning fikricha, insonning kamol topishi bilim egallash, tafakkur yuritish va axloqiy fazilatlarni rivojlantirish bilan bog'liq. Ibn Sino ilmni inson hayotini takomillashtiruvchi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi kuch sifatida baholagan.

O'rta asrlar va temuriylar davri tafakkurida ma'naviy kamolot

O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda ma'naviy-ma'rifiy tafakkur yanada rivojlandi. Tasavvuf falsafasida insonning ichki dunyosini poklash, nafsni tiyish, ezgulik va komillikka intilish masalalari asosiy mavzulardan biriga aylandi. Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband kabi mutafakkirlarning qarashlarida insonning ma'naviy kamoloti jamiyatdagi axloqiy munosabatlarni takomillashtirish bilan bog'langan. Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotning yangi bosqichini yuzaga keltirdi. Mirzo Ulug'bekning ilmiy faoliyati, uning Samarqandda ilmiy maktab va rasadxona tashkil etishi ilmning jamiyat taraqqiyotidagi amaliy ahamiyatini namoyon etdi. Bu davrda ilm-fan, san'at, adabiyot va falsafaning rivojlanishi insonning intellektual va ma'naviy imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qildi. Alisher Navoiy ijodida esa komil inson g'oyasi alohida ahamiyatga ega. Navoiy insonning qadr-qimmatini uning boyligi yoki mavqei bilan emas, balki aqli, odobi, ma'rifati va ezgu amallari bilan belgilaydi. Uning asarlarida adolat, saxovat, halollik, ilmga intilish va insonparvarlik jamiyat taraqqiyotining muhim ma'naviy asoslari sifatida talqin qilinadi.

Jadidchilik harakatida ma'rifat va milliy taraqqiyot g'oyasi

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston hududida shakllangan jadidchilik harakati ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyot tarixida muhim bosqich bo'ldi. Jadidlar jamiyat taraqqiyotini, avvalo, ta'lim va ma'rifatni rivojlantirish, milliy ongini yuksaltirish va zamonaviy bilimlarni egallash bilan bog'ladilar.

Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ma'rifatparvarlar ta'lim-tarbiyani jamiyatni yangilashning asosiy vositalaridan biri sifatida ko'rdilar. Abdulla Avloniy "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot..." degan mashhur fikri orqali tarbiyaning millat va jamiyat kelajagidagi ahamiyatini alohida ta'kidlagan.

Jadidlar qarashlarida ma'rifat faqat bilim berish jarayoni emas, balki insonning dunyoqarashini o'zgartirish, milliy o'zlikni anglash va ijtimoiy faollikni oshirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan jadidchilik falsafasi ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotning tarixiy-falsafiy rivojida alohida o'rin tutadi.

Ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyot g'oyalarining zamonaviy mazmuni

Tarixiy-falsafiy taraqqiyot shuni ko'rsatadiki, ma'naviyat va ma'rifat tushunchalari turli davrlarda turlicha mazmun bilan boyib borgan bo'lsa-da, ularning asosida insonni kamol toptirish, bilim va tafakkurni rivojlantirish, axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash kabi umumiy tamoyillar mavjud.

Bugungi kunda ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyot milliy qadriyatlarni asrab-avaylash bilan bir qatorda, umuminsoniy qadriyatlar, zamonaviy ilm-fan, tanqidiy tafakkur va ochiq dunyoqarashni rivojlantirishni ham taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan tarixiy-falsafiy meros zamonaviy ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni anglash uchun muhim nazariy manba hisoblanadi.

Tarixiy merosning zamonaviy taraqqiyot bilan bog'liqligi, avvalo, qadriyatlarning avloddan-avlodga o'tishi va yangi ijtimoiy sharoitlarda qayta talqin qilinishi orqali namoyon bo'ladi. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Navoiy va jadid mutafakkirlarining ilm, ma'rifat, axloq, adolat va inson kamoloti haqidagi qarashlari bugungi ma'naviy-ma'rifiy siyosatning tarixiy-falsafiy asoslarini anglashda muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotning tarixiy-falsafiy ildizlari qadimgi davrlardan boshlab shakllangan bo'lib, Sharq va G'arb falsafasi, Markaziy Osiyo mutafakkirlari merosi hamda jadidchilik ma'rifatparvarligi orqali izchil rivojlangan. Ushbu tarixiy davomiylik ma'naviy taraqqiyotning barqarorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa. Ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotning tarixiy-falsafiy ildizlarini tadqiq etish uning ko'p asrlik tarixiy jarayon ekanini ko'rsatadi. Qadimgi Sharq va antik falsafadan boshlab Markaziy Osiyo falsafiy tafakkuriga bo'lgan davrda insonning ma'naviy kamoloti, bilim va ma'rifatning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, axloq, adolat va ezgulik masalalari izchil rivojlantirib borilgan. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib va Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning ilmiy-falsafiy merosida insonni kamol toptirish, ilm va ma'rifetni rivojlantirish, adolatli va fozil jamiyat barpo etish g'oyalari muhim o'rin egallaydi. Mazkur qarashlar ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotning tarixiy asoslari sifatida bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Umuman olganda, tarixiy-falsafiy merosni chuqur o'rganish milliy ma'naviyatning mazmun-mohiyatini anglash, yosh avlodning dunyoqarashini shakllantirish va jamiyatning ma'rifiy salohiyatini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotning tarixiy davomiyligi milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'un rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
2. Beruniy, Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – Toshkent: Fan, 1968.
3. Ibn Sino, Abu Ali. Donishnoma. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.

4. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. – Toshkent: Fan, 1971.
5. Jo‘rayev, N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2008.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
7. Mirziyoyev, Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.